

GENDER TENGLIK STRATEGIYALARIDA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLAR: MARKAZIY OSIYO TAJRIBASI MISOLIDA



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-90-93>

Sultanova E'tibor Sidiqovna

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
“Siyosatshunoslik” kafedrası professori, siyosiy fanlari doktori,
+998903242024, ihtibor@mail.ru*

Nizamova Mohidil Maxmud qizi

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktoranti,
UzSWLU, Siyosiy fanlar kafedrası o'qituvchi-stajyori,
+998945208770, nizamova@uwed.uz*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlarida gender tenglik strategiyalarini amalga oshirishda milliy-madaniy xususiyatlarning o'rni tahlil etiladi. Maqolada gender stereotiplarning ta'lim va oilaviy qadriyatlarga ta'sirini ko'rsatadi. Muallifning yondashuvi shundaki, universal standartlar va milliy kontekst o'rtasida muvozanat zarurdir. Natijada transformativ yondashuvga asoslangan mintaqaviy model taklif etiladi.

Kalit so'zlar: gender tenglik, Markaziy Osiyo, milliy-madaniy xususiyatlar, transformativ yondashuv, ta'lim tizimi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль национально-культурных особенностей в реализации стратегий гендерного равенства в государствах Центральной Азии. Исследование демонстрирует влияние гендерных стереотипов на образование и семейные ценности. Авторский подход обосновывает необходимость баланса между универсальными стандартами и национальным контекстом. Предлагается региональная модель, основанная на трансформативном подходе.

Ключевые слова: гендерное равенство, Центральная Азия, национально-культурные особенности, трансформативный подход, система образования.

ABSTRACT

This article analyzes the role of national-cultural characteristics in implementing gender equality strategies in Central Asian states. The research demonstrates the impact of gender stereotypes on education and family values. The author's approach substantiates the need for balance between universal standards and national context. A regional model based on transformative approach is proposed.

Key words: gender equality, Central Asia, national-cultural characteristics, transformative approach, education system.

KIRISH

Gender tenglik XXI asrda global qiymatga aylangan bo'lsa-da, uning amalga oshirilishi har bir mintaq uchun o'ziga xos yo'nalishlarni talab etadi. Durrani va Katayeva ta'kidlashadiki, Markaziy Osiyo ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'lsa-da, gender rollari bo'yicha chuqur ildiz otgan ijtimoiy me'yorlar sezilarli muammo

bo‘lib qolmoqda [1]. UNFPA ma’lumotlariga ko‘ra, mintaqada gender stereotiplari global o‘rtachadan yuqoriroqdir [2].

Tadqiqot maqsadiga Markaziy Osiyo davlatlarida gender tenglik strategiyalarining milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil qilish va transformativ yondashuvni ishlab chiqishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Durrani va Katayeva Markaziy Osiyoda ta’lim sohasidagi gender tenglik islohotlari uchun siyosiy kontekstni tahlil qilib, gender ijtimoiy me’yorlarini asosiy to‘siq sifatida belgilab berdilar. Ular o‘quv darsliklarida gender stereotiplarining keng tarqalganligini va ta’lim tizimida gender sezgir yondashuvning zarurligini ko‘rsatdilar [1].

UNFPA Markaziy Osiyo bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotida gender ijtimoiy me’yorlarini tahlil qilib, chuqur ildiz otgan madaniy qarashlarda zo‘ravonlikni yashirin qo‘llab-quvvatlashni va gender transformativ tashabbuslar zarurligini ta’kidlaydi. Tadqiqot faqat ayollarga qaratilgan yondashuvlar emas, balki erkaklar va o‘g‘il bolalarni jalb etuvchi transformativ strategiyalar muhimligini asosladi [2].

Peshkova O‘zbekistonda gender tadqiqotlarining kontekstual tabiati haqida yozib, Muslim ayollarning liderligini va Islom feminist yondashuvlarni tahlil qildi. Uning tadqiqotlari O‘zbekistonda turli darajadagi ayol faollarning Islom talqinlaridan ilhomlangan faoliyatini va gender adolatini ta’minlashda Islom diskurslarining ko‘p qirraliligini ko‘rsatadi [3].

Wadud Islom feminist nazariyotchisi sifatida Qur’onni ayol nuqtai nazaridan qayta o‘qish orqali, muqaddas matnning gender tengligi tamoyillarini o‘z ichiga olishini asosladi. Uning hermeneutik yondashuvi Qur’ondagi tenglik asosiy tamoyil ekanligini ko‘rsatadi [4].

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Qiyosiy-huquqiy tahlil (5 davlat qonunchiligi), hujjatlar tahlili (strategik hujjatlar, xalqaro hisobotlar), statistik ma’lumotlar tahlili (BMT, Jahon banki, UNDP), diskurs-tahlil (gender stereotiplari) va madaniy-antropologik yondashuv qo‘llaniladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Barcha Markaziy Osiyo davlatlari gender qonunchiligini rivojlantirgan. O‘zbekiston 2019-yilda “Ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar va imkoniyatlarni kafolatlash” qonunini qabul qildi [5]. Qozog‘iston 2030-yilgacha Gender tenglik strategiyasini amalga oshirmoqda va ayollar uchun taqiqlangan kasblar ro‘yxatini bekor qildi. Qozog‘iston Global Gender Gap Index 2024 da 146 davlat orasida 76-o‘rinni egalladi [6]. Ammo qonunchilik va amaliyot o‘rtasidagi bo‘shliq sezilarli bo‘lib, qonunlarning samarali amalga oshirilishi uchun ijro mexanizmlari va monitoring tizimlari zarurdir.

Ta’limda gender stereotiplari. Durrani va Katayeva tadqiqotlari Markaziy Osiyo davlatlarining o‘quv darsliklarida keng tarqalgan gender stereotiplarini aniqladi. Qozog‘istonda Gender tenglik strategiyasi maktablarga gender ta’limini o‘quv dasturiga kiritishni talab qilgan bo‘lsa-da, strategiyaning 10 yillik davri

mobaynida o‘quv darsliklar gender stereotiplarini bartaraf etish uchun qayta ko‘rib chiqilmagan [1]. Ta’lim muassasalari gender me’yorlarini o‘zgartirish uchun o‘z mazmuni, jarayonlari va tuzilmalarida gender tengligini ta’kidlashlari kerak.

Oilaviy qadriyatlar va milliy-madaniy kontekst. UNFPA tadqiqotiga ko‘ra, jamiyatga chuqur singib ketgan madaniy qarashlarda zo‘ravonlikni yashirin qo‘llab-quvvatlash va gender stereotiplari ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotiga to‘sqinlik qilmoqda [2]. Mintaqada gender munosabatlariga oid ijtimoiy me’yorlarning xilma-xilligi kontekstga asoslangan strategiyalar zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev an’anaviy gender rollarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlab, ayolni faqat ona va oila o‘chog‘ining himoyachisi sifatida ko‘rish stereotipidan xavotirlanishini bildirdi.

Islom an‘analari va transformativ yondashuv. Peshkova tadqiqotlari O‘zbekistonda turli darajadagi ayol faollarning Islom burchlarini talqin qilishlaridan faoliyatini ko‘rsatadi. Bu gender adolatini ta’minlashda Islom diskurslarining ko‘p qirraliligini va kontekstual tabiati muhimligini tasdiqlaydi [3]. Wadud ham Islom feminist nazariyotchisi sifatida Qur‘on gender tengligi tamoyillarini o‘z ichiga olishini asosladi, bu esa Islom o‘zi gender tenglikka to‘sqinlik emas, balki patriarxal talqinlar muammoli ekanligini ko‘rsatadi deb ta’kidlaydi.

UNFPA ta’kidlaganidek, Markaziy Osiyoda chuqur ildiz otgan me’yorlarga qarshi kurashish uchun gender transformativ tashabbuslar muhim ahamiyatga egadir. Transformativ yondashuv faqat gender farqlarini kamaytirishga emas, balki gender tengsizliklarini keltirib chiqaradigan tub sabablar va tizimlarni o‘zgartirishga qaratilgan. Erkaklar va o‘g‘il bolalarni gender tengligi jarayoniga faol kiritish strategiyaning samaradorligini oshiradi [2].

XULOSA

Markaziy Osiyo davlatlarida gender tenglik strategiyalarida milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olish va transformativ yondashuv zaruriyati isbotlandi. *Tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarni beradi:*

Birinchidan, davlatlar keng normativ-huquqiy baza yaratgan, ammo qonunchilik va amaliyot o‘rtasidagi bo‘shliq sezilarlidir. Ijro mexanizmlari, monitoring tizimlari va javobgarlik choralari qonunlarning samarali amalga oshirilishi uchun zarurdir.

Ikkinchidan, ta’lim tizimi gender stereotiplarini mustahkamlashda davom etmoqda. O‘quv darsliklarini qayta ko‘rib chiqish, o‘qituvchilar uchun gender ta’limini ta’minlash va gender sezgir pedagogika joriy etish shoshilinch vazifalardir.

Uchinchidan, milliy-madaniy kontekst va Islom an‘analari muhim, ammo Islom feminist tadqiqotlari ko‘rsatadiki, Islom o‘zi gender tenglikka to‘sqinlik emas, aksincha patriarxal talqinlar muammolisidir. Kontekstga mos yondashuv zarurdir.

To‘rtinchidan, transformativ yondashuv — faqat gender farqlarini emas, balki gender tengsizliklarining tub sabablarini bartaraf etish, erkaklar va o‘g‘il bolalarni jalb etish, va jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak.

Beshinchidan, Markaziy Osiyo uchun o‘ziga xos gender tenglik modeli mintaqaning umumiy madaniy kontekstini hisobga olgan holda, yuqoridan pastga (qonunchilik va institutsional mexanizmlar) va pastdan yuqoriga (jamiyat ongi, mahalliy tashabbuslar) yondashuvlarni birlashtirishi zarur va muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Durrani N., Kataeva Z., Shamatov D. Policy Context for Gender Equality Reforms in Education in Central Asia // Gender Equality in Education in Central Asia. – Springer Nature, 2024. – Chapter 2. – P. 25-58.
2. UNFPA. Challenging Gender Social Norms and Practices in Central Asia: Research Report on Gender-Transformative Approaches. – United Nations Population Fund, 2022. – 156 p.
3. Peshkova S. Women, Islam, And Identity: Public Life in Private Spaces in Uzbekistan. – Syracuse: Syracuse University Press, 2014. – 288 p.; Peshkova S. A Reflection on Gender Studies in Central Asia // Voices on Central Asia. – 2022. – May 4.
4. Wadud A. Qur’an and Woman: Rereading the Sacred Text from a Woman’s Perspective. – 2nd edition. – New York: Oxford University Press, 1999. – 128 p.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2019, 2-avgust. – O‘RQ-562-son. Url: <https://lex.uz/docs/-4494849>
6. UN Women. Kazakhstan Country Profile: Progress on Gender Equality // UN Women Europe and Central Asia Regional Office. – 2024; World Economic Forum. Global Gender Gap Report 2024. – Geneva: WEF, 2024. – P. 156-158.